

Zarifa Saidnosirova (1908-1986)



Zarifa Saidnosirova (1908-1986)



Zarifa Saidnosirova (1908.31.9, Turkiston shahri, Qozog'iston — 1986.16.8, Toshkent) — kimyogar olma. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi (1968), professor (1970). Kimyo fanlari nomzodi (1945). Birinchi o'zbek ayol rassomi. Taniqli ma'rifatparvar S. Mirjalilovning qizi, Oybekning rafiqasi.

Toshkentda «Pestolotstsi» maktabi (1922—26), Navoiy nomidagi ta'lim-tarbiya texnikumi (1924—36) va ayni paytda Rozanov tasviriy san'at studiyasi (1924—26)da o'qigan. So'ng O'rta Osiyo universiteti fizika-matematika fakultetining kimyo bo'limini tugatib (1926—30), o'rta maktablar, xotin-qizlar bilim yurti va ishchilar fakultetida fizika, matematika va kimyo fanlaridan dars bergan. Qishloq xo'jalik institutida o'qituvchi, dotsent va kafedra mudiri (1930—86), Toshkent tibbiyot institutida o'qituvchi (1932—37), O'quvpedagogika nashriyotida muharrir (1934—35) bo'lib ishlagan.

O'rta maktablar va texnikumlar uchun «Kimyo» darsligi (1933) muallifi. Zarifa Saidnosirova pedagogik faoliyatidan tashqari, volfram kompleks birikmalari va kimyo terminlarining ruscha-o'zbekcha lug'ati ustida ilmiy ish olib borgan.

"Ximiyadan ruscha-o'zbekcha qisqacha izohli lug'at" (hamkorlikda, 1975), "Oybegim mening" (xotiralar, 1994) kitoblari chop etilgan.

Zarifa Saidnosirova Oybek adabiy merosini saqlash, tartibga solish va nashr etish ishiga katta hissa qo'shgan. U adibning o'zbek tilidagi 20 jildlik «Mukammal asarlar to'plami» (1975—85)ni, rus tilidagi 5 jildlik «Asarlar»i

(1985—87)ni nashrga tayyorlashda faol ishtirok etgan.

Beruniy nomidagi Uzbekiston Davlat mukofoti laureati (1985).

Tasviriy san'atga oid ishlari Oybek uy-muzeyida saqlanadi.

2023-09-13 09:51:34